

II  
INTERNATIONAL SCIENTIFIC  
**ONLINE  
CONFERENCE**



ЧЕЛЯБИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
ИНСТИТУТ КУЛЬТУРЫ

# “INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2020”



Челябинский Государственный Институт Культуры  
“Academia Science” илмий тадқиқотлар маркази  
[www.academiascience.org](http://www.academiascience.org) илмий журналлар портали

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE  
CONFERENCE ON  
“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE  
– 2020”

“INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE – 2020” MAVZUSIDAGI  
2-SONLI XALQARO ILMUY-ONLINE KONFERENSIYASI MATERIALLARI  
TO‘PLAMI



Ferghana - 2020

## ORGANIZING COMMITTEE

**Editor in chief:** **V.Ya.RUSHANIN (professor)**

**Editorial board:** **Eshmatov Gayratjon Marupovich**  
**Eshmetov Izzat Do'simbatovich (Professor)**  
**Matibaev Taspolat Baltabaevich (Professor)**  
**Sultonali Mannopov (Professor)**  
**Fazliyeva Zebo Kamarbekovna (PhD)**  
**Oripov O'rolboy Ahmedovich (PhD)**  
**Popov Dmitriy Vladimirovich (PhD)**

# INTERNATIONAL SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE “INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE – 2020”

**MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНЬЕ**

<p><b>1.</b> Xamrayeva S.N. Xo'janova G.O. SANOAT KORXONALARIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH VA UNING RAQOBATBARDOSHЛИGINI OSHIRISH</p> <p><b>2.</b> Шарипов Файзулло Нарзиевич, Абдиалимов Шохижон Мухтор ўғли “АВЕСТО” НИНГ “ВИДЕВДАТ” ВА “ВИСПРАД” ҚИСМЛАРИДА ОНА ЗАМИННИНГ ЁРИТИЛИШИ</p> <p><b>3.</b> Ҳалилова Дилнозаҳон Солиевна БАДИЙ ТАФАККУРНИНГ ТАРИХИЙ ВА МАЪНАВИЙ АСОСЛАРИ</p> <p><b>4.</b> Xolyorov Mirzabek Baxtiyor o'g'li ABDULLA ORIPOV IJODIDA “ONA” OBRAZINING BADIY TALQINI</p> <p><b>5.</b> Muhuddinova Kamola Mahmudjanovna O'QISH DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR</p> <p><b>6.</b> Sobirova Sohiba Sultonnazirovna, Yuldashev Otaboy Hamdambek o'g'li O'QUVCHILARNING KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA PEDAGOG-PSIXOLOGLARNING AHAMIYATI</p> <p><b>7.</b> Savenko Oleся Викторовна ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЛИТЕРАТУРА - ОБЪЕКТ ИЗУЧЕНИЯ.</p> <p><b>8.</b> Cho'lliyeva Gulchehra Toshpo'lot qizi HISSIY INTONEMALAR XUSUSIDA</p> <p><b>9.</b> Mamadaliyeva Dilnoza Mamasadikovna TA'LIMDAGI MENING LOYIHAM: 5 TASHABBUS - 5 IMKONIYAT</p> <p><b>10.</b> Embergenova Nabira Muratovna, Ernazarova Dilnoza Ibragimovna, Turayeva Lobar Ikrom qizi VIRTUAL TA'LIM MUHITI ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINING AFZALLIKLARI</p> <p><b>11.</b> Narmatova Muhabbat Bekmuratovna, G'affarova Nodira Hamraqul qizi BOSHLANG'ICH SINF DARSLARINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TASHKIL ETISH</p> <p><b>12.</b> Narmatova Ashirgul Mardonovna, Eshbo'riyeva Xurshida Urinovna BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI O'QUVCHILARDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARНИ SHAKLLANTIRISH</p> <p><b>13.</b> Imomova Umida Iskandarovna BUGUNGI KUNDA O'ZBEK TILIGA BERILAYOTGAN E'TIBOR</p> <p><b>14.</b> Irgasheva Kamola Akramovna OILADA FARZAND TARBIYASI</p> <p><b>15.</b> Ismoilova Munira Yusubovna GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</p> <p><b>16.</b> Ibadullayeva Shaxnoza Ilhomovna, Jo'rayeva Gulnoza Jamshidovna NAQQOSHLIK MASHG'ULOTLARIDA KOMPOZITSIYA TUZHISHNING ASOSIY QONUNLARI, USUL VA VOSITALARI</p> <p><b>17.</b> Kabulova Iroda Gadayniyazovna BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA TA'LIM VA TARBIYANING ROLI</p> <p><b>18.</b> Ғуломжонов Одилжон Рахимжон ўғли МАЪНАВИЙ ВА ДИНИЙ БАГРИЕНГ ЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ БОРАСИДАГИ ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ҚАРАШЛАРИ</p> <p><b>19.</b> Odilov Javohir THE DEVELOPMENT OF A MOBILE APPLICATION FOR MONITORING ROAD ADVERTISEMENTS</p>	<p>6</p> <p>9</p> <p>12</p> <p>18</p> <p>23</p> <p>26</p> <p>29</p> <p>31</p> <p>35</p> <p>38</p> <p>41</p> <p>43</p> <p>45</p> <p>48</p> <p>50</p> <p>52</p> <p>56</p> <p>59</p> <p>63</p>
--	---

## HISSIY INTONEMALAR XUSUSIDA

*Cho'lliyeva Gulchehra Toshpo'lot qizi  
BuxDU o'qituvchisi  
[gchulliyeva@bk.ru](mailto:gchulliyeva@bk.ru)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada intonatsiyaning birligi bo`lgan intonema va uning vazifalari, turlari haqida so`z yuritilgan bo`lib, hissiy intonemalarga xos bo`lgan ayrim xususiyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, hissiy intonemalar misollar vositasida tadqiq ostiga olingan.

**Kalit so`zlar:** nutq, intonatsiya, intonema, spiker nutq, aqliy intonema, ixtiyoiy intonem.

## ОБ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ИНТОНЕМАХ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается интонема - единица интонации, ее функции, типы и анализируются некоторые особенности эмоциональной интонемы. Эмоциональные интонемы также исследуются на примерах.

**Ключевые слова:** речь, интонация, интонема, говорящая речь, мысленная интонема, произвольная интонема.

## ABOUT EMOTIONAL INTONEMS

**Annotations:** This article discusses intonation, which is the unit of intonation, its functions, types, and also analyzes the features of ayrim inherent in tumor interludes. Emotional intones are also explored through examples.

**Key words:** speech, intonation, intonation, speaking nootk, mental intonation, arbitrary intonem.

Intonatsiya – bu yangrayotgan nutqning talaffuz ohangi va uning ortida turgan turli-tuman birliklar yig`indisi. Bu talaffuz tizimi quyidagilarni o`z ichiga oladi: 1) melodika (asosiyl talaffuz ohangining harakati); 2) ug`ru ( talaffuziy tizimlarni shakkantiradigan, ohang orqali ma`nolarni ifodalaydigan, shuningdek, so`lovchining ayni paytdagi kayfiyatini tasvirlaydigan, xullas, so`z bilan bildirib bo`lmaydigan tushunchalarni ko`rsatadigan birlik); 3) nutq ohangi sur`ati, ya`ni tempi; 4) to`xtam.

O`zining tabiatli bo'yicha intonatsiya ko`p segmentlidir: u nutqning talaffuz tuzilishi ustiga qurilgan.

Intonatsiya yangrayotgan nutning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutq intonatsiyasiz bo`lmaydi. Ifodalanayotgan nutqning go`zalligi nafaqat ishlatilayotgan so`z boyligi-yu, chuqur ma’noli so`zlarni qo`llay olishda emas, balki o’sha so`z va iboralarни talaffuziy qobiliyati va nutq ohangining rang-barangligida hamdir. Intonatsiya til tizimida muhim o`rin egallaydi va qator vazifalarni bajaradi.

Intonatsiya turli vazifalarni bajara olishi bilan xarakterlanadi:

- nutqning yoki uning bir bo`lagining talaffuziy qolipini yaratadi;
- matnni ma’no ifodalovchi bir nechta guruhlarga bo`ladi;
- muhim kommunikativ ma’nolarni bera oladi (da’vat, buyruq, so’roq);
- til birliklari orasidagi ma’noviy va grammatik bog`lanishlarni ifodalaydi;
- so`zlovchining nutqiga yoki tinglanayotgan nutqqa bo`lgan munosabatni ko`rsatadi;
- so`zlovchining hissiy holatini tasvirlaydi.

Intonatsiya birligi intonema (ohang fonemasi, intonatsiya tuzilishi) bo‘lib, u intonatsiya davri, ya’ni bayonot yoki uning qismini farqlash va bayonning kommunikativ turini, sintagmalarning semantik ahamiyatini, mavzularga va qismlarga bo‘linish uchun yetarli bo‘lgan intonatsion belgilar (parametrlar) to‘plamini tashkil etadi.

Intonema atamasi ilk bora XX asrning 40-yillarida nashr etilgan rus tilshunosligiga oid darslik va qo‘llanmalarda uchrashini kuzatish mumkin. Bevosita intonatsiya masalalari bilan shug‘ullangan rus olimi V. A. Artyomov mazkur atamaning paydo bo‘lishini Reformatskiy nomi bilan bog‘laydi [1].

V. A. Artyomovning fikricha, intonema turli intonatsion elementlarning odatiy naqshiga ega bo‘lgan funktional birligi bo‘lib, bu borada intonem va intonatsion invariant tushunchalarini ajratish muhim. Odatda, birinchi atama til tizimi voqeligidagi nutqning ijtimoiy jihatdan yondashilgan nolisoniy birligi hisoblansa, ikkinchi atama esa spiker nutq – muayyan tilda zarur bo‘lgan akustik xususiyatlarning nisbiy modeli (tuzilmasi) sifatida qaralishi nazarda tutiladi.

Intonema intonatsiya birligi, intonatsiya modeli, bayonning ma’nosini bilan bog‘liq bo‘lgan intonatsion fazilatlarni umumlashtirish natijasidir. Intonema intonatsion muntazamlikni ta’minkaydi, bu nutqda intonatsion-semantik segmentlarni aniqlashga yordam beradi. Intonemaning moddiyati intonatsion elementlar(to‘xtam, sintagma, rema va b. lar)dan hosil bo‘ladi, ammo bu intonema shu elementlarning oddiy jamlanmasi degani emas. Intonemaning fizik jihatni, odatda, muayyan til egalari nutqida mavjud sof intonatsion tovushlarning o‘xshash tomonlari asosida umumlashma hosil qilishi bilan xarakterlanadi. Mutaxassislarining fikricha, intonemalar umumlashma to‘plami muayyan tilda (masalan, o‘zbek tilida, rus yoki nemis lisonida) so‘zlashuvchilarining xotirasida saqlanadi va aniq nutq parchalarining talaffuzida yoki “hazm qilinishi” (tinglanishi)da me’yor vazifasini o’taydi.

Intonemalar turli vazifani bajarishga xoslangan bo`lib, shulardan kommunikantlarning hissiy-ekspressiv holatini ko`rsatishga mo`ljallangani haqida to`xtalib o`tmochimiz.

Intonemalarning hissiy vazifasi so‘zlovchining hissiy holatini ifoda etishga xizmat qiladi, tuyg‘ulari(g‘azab, qo‘rquv, muloyimlik, qayg‘u, nafrat, befarqlik, xafagarchilik, shodlik, uyalish, ajablanish va h. )ni intonatsion vositalar bilan ifoda etadi.

Hissiy intonemalar insonning ruhiy kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lib, ularni ifodalashda mustaqil nutqiy birliklar(his-hayajon undovlari, ritorik so‘roqlar, undov gaplar va b. )dan foydalilanadi. Ammo bu belgilarni ifodalash uchun kommunikantga tegishli hissiy holatining mavjudligi nutq momentida shart bo‘lmasligi ham mumkin. Har bir hissiy intonemaning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish muhimdir. Masalan,

•g‘azab intonemasi intensivlikning oshishi, pasayishi bilan tavsiflanadi:

- Tur, Ra’no, turgin, jonom! Meni chaqirishyapti.

Tuynuk orqasida Ra’no kelinoyim past, ammo **g‘azab to‘la ohangda** pichirladi:

- Basharang qursin! Qayoqdan keldi bu so‘xtasi sovuq! Shu kuniyam xoli qo‘yishmaydi. [2, 153-b. ]

•qayg‘u intonemasi ohangning kichik o‘zgaruvchanligini yuzaga keltiradi, bunda sintagmaning boshlanishi qizg‘in bo‘lib, keyin intensivlik pasayadi yoki uzilib qoladi:

Kimsan akam dorbozlardek bir oyoqlab bag‘azga osilgan ko‘yi biz tomonga yuzlandi. Oyim teskari qarab, kafti bilan yuzini to‘sancha hiqillab yig‘lab yubordi. - Urush boshlanibdi! - dedi bobom **siniq ohangda**. Yurtimizga nemis bostirib kiribdi. [2, 100-b. ]

Ovsinim dasturxon popugini o‘ynagancha jim o‘tirardi. - Durimni sotib keldim, - dedi **xasta, bo‘g‘iq ohangda**. - Ikki bolaga ikki jonliq so‘ymasam bo‘lmaydi. - Uning tomog‘ini yig‘i bo‘g‘ib keldi-yu, yig‘lashga kuchi yetmadi. Lablari titrab, kafti bilan yuzini yashirdi. [2, 199-b. ]

•befarqlik intonemasi ohang quruq, sovuq, pasaygan intensivlik, shuningdek, befarqlik holati xatti-harakatlardagi kabi intonatsiyada ham shunchalik aniqlanmagan mavhumlik seziladi.

U yaqin kelib salomlashdi. - Ha, kelin? - dedi qandaydir **quruq ohangda**. - Kuyovni izlab kepsiz-da! [3, 297-b. ]

•xursandchilik intonemasida baland “sakrash” ohangi, ko‘tarinkilikning davomiyligi, «yengil», «iliq» tembr kuzatiladi:

Bolalar-u qizlar chuvillashib baravar salom berishadi. Ermon buva alik oladi-da, chordana qurib o‘tiradi. Boyagi tugunni shoshilmasdan yechadi. - Qani qoravoylar! Qani popuklar, - deydi **qandaydir tantanavor ohangda**. - Dasturxonga marhamat. Uyalmanglar, tasadduqlar! [3, 68-b. ]

•aybdorlik intonemasi ovozning pasayib va cho`zilib ketishi, bir maromda emasligi va qaltirashi, nutq ohangining yakuniga yetmagandek tuyilishi bilan ajralib turadi:

Qo‘rquv ichida oyimga qaradim. - Qiluvdim, - dedi u sekin. - Qolmadimi? - O‘g‘ir olgur ag‘darilib ketdi, - dedi onam **aybdor ohangda**. [3, 24-b. ]

•yalinish intonemasi ovozning cho`zinchoqligi, nutq ritmining bir maromdaligi bilan tavsiflanadi:

Bir mahal paranji-chachvonli xotinga duch keldik. Oyim yana o‘scha **yalinchoq ohangda** so‘radi: - Hoy, baraka topgur, Bashoratxonni tanimaysizmi? [2, 120-b. ]

•**xotirjamlik intonemasi** ohang tempining sekinlashgani, ritmning bir maromdaligi va qisman, mavhumlik seziladi:

Erta-indin chiqib qolsa kerak. Hozir tekshirishyapti, - dedim nihoyatda **xotirjam ohangda**. - Agar rost bolsa, maqolani chiqarib sizga «personalniy pensiya» tayin qilisharkan. Agar noto‘g‘ri bo‘lsa, sudga berisharkan. [2, 151-b. ]

•ajablanish intonemasida ovoz balandligi yuqoridan pastga qarab yunaladi va hayrat, hadiksirash holatlari bilan uyg`unlashib ketadi.

Kommunikant nutqida o`zining ichki kechinmalaridan, nutq vaziyatidagi hissiy-ekspressiv holatidan kelib chiqib, intonemaning barcha turidan unumli foydalana oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Артемов В. А. Речевая интонация// Сб. «Экспериментальная фонетика». Вып. №3. –Минск, 1971. –С. 201.
2. Hoshimov O`. Ikki eshik orasi. Roman. – T. : “Sharq”, 2012. 328 bet.
3. Hoshimov O`. Dunyoning ishlari. Qissa va hikoyalar. – T. : “Yangi avlod”, 2015. 219 bet.
4. Yuldasheva D., Ashurbayeva R., Asadova Sh., Yusupova D. Use of an Integrative Research on the Education System. – Scopus: International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-4, November 2019. – Pag. 7661-7664.
5. Cho`lliyeva G. T. Intonatsion birliklar. – Buxoro, Davlat tili – ijtimoiy taraqqiyot va milliy yuksalish mezoni. (O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 31yilligiga bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy anjumani. )